

QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazlari ma'lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlanтиrish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z оrnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlanтиrish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fеврал holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,1** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **13,2** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 5 396 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 13,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 4,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 87,9 % ni tashkil etib (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 22,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) oshdi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 foizga kamaygan




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




1,5 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




4,4 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar



54,5 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 444 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % ga ko'paygan. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 1,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 66,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 33,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 11,3 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 90,9 % ni (jami qurilishdagi ulushi 22,3 %) tashkil etdi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 12 078 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,0 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 18,3 % ga (jami savdodagi ulushi 72,3 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 19,2 ga (jami savdodagi ulushi 19,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 25,1 % ga (jami savdodagi ulushi 8,0 %) oshdi.



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

10



*Jami faoliyat ko'rsatayotgan savdo korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,0** foizga oshdi*



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
7,9 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




12,7 foizga oshdi


Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


11




Kichik tadbirdorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

810



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

26



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

18



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



168
Yashash bo'yicha
xizmatlar



1 768
Oziq-ovqat
mahsulotlari va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 936 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishiining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 7,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 91,3 %), yashash bo'yicha xizmatlar 36,6 % ga ko'paygan (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 8,7 %) o'sishi ko'zatilmoqda.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

13



Jami faoliyat ko'rsatayotgan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



10,0
foizga
oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



18,5
foizga
oshdi




Oilaviy korxonalar




10,6
foizga
oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga
nisbatan
4,0 foizga oshdi




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14




Jami faoliyat ko'rsatayotgan axborot va aloqa korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




14,3
foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




33,3
foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

15



Jami faoliyat ko'rsatayotgan tashish va saqlash korxonalarining umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan
9,2 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



9,1
foizga
oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




9,7
foizga
oshdi




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 5 951 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 385 taga yoki 30,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 888 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 607 taga yoki 14,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 33 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 20 927 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 377 taga yoki 19,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 464 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 545 taga yoki 15,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 272 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

18




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra 255 tani tashkil etib, ulardan 237 tasi yoki 92,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 15 taga yoki 6,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida viloyatimizda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


19

	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil	2023- yil
Jami	90	197	220	232	237
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10	31	41	47	49
Sanoat	52	104	112	107	102
Qurilish	4	10	10	12	15
Savdo	13	27	31	38	41
Tashish va saqlash	2	4	5	4	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	10	8	9	7
Axborot va aloqa	1	3	1	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	3	4	6	6
Boshqa turlar	4	5	8	8	11

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

20



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

21


	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Qashqadaryo viloyati	237	151	86
G'uzor	12	9	3
Dehqonobod	18	12	6
Qamashi	13	9	4
Qarshi	17	10	7
Koson	21	11	10
Kitob	18	11	7
Mirishkor	9	5	4
Muborak	13	6	7
Nishon	17	12	5
Kasbi	7	2	5
Ko'kdala	5	4	1
Chiroqchi	8	6	2
Shahrisabz	5	3	2
Yakkabog'	16	9	7
Qarshi sh.	52	40	12
Shahrisabz sh.	6	2	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 52 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 21,9 %), Koson 21 ta (8,9 %), Kitob 18 ta (7,6 %), Dehqonobod 18 ta (7,6 %), Nishon 17 ta (7,2 %), Qarsh 17 ta (7,2 %), Yakkabog' 16 ta (6,8 %) va Qamashi tumanlarida 13 ta (5,5 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

22




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 44 557 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (18,7 %), Koson (7,8 %), Kitob (7,3 %), Qarshi (7,1 %), Yakkabog' (7,1 %), Qamashi (6,8 %), Chiroqchi (5,6 %), Shahrisabz shahri (5,3 %), G'uzor (5,3 %), Shahrisabz (4,8 %), Dehqonobod (4,7 %), Kasbi (4,6 %), Nishon (4,6 %), Mirishkor (4,1 %), Muborak (3,2 %) va Ko'kdala (3,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil yanvar oyida, birlikda)

2023- yilning yanvar oylarida yangi tashkil etilgan 395 ta korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Qarshi shahrida (17,9 %), Nishon (11,6 %), Qarshi (8,1 %), Kasbi (7,6 %), Yakkabog' (6,6 %), Mirishkor (6,6 %), Koson (6,3 %), Ko'kdala (6,1 %), Shahrisabz shahri (5,1 %), Qamashi (5,1 %), Kitob (4,8 %), G'uzor (3,5 %), Dehqonobod (3,3 %), Shahrisabz (2,8 %), Chiroqchi (2,8 %) va Muborak (1,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan 19 464 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahrida (22,5 %), Koson (10,4 %), Qamashi (8,5 %), Yakkabog' (8,3 %), Qarshi (6,1 %), Mirishkor (5,4 %), Kasbi (5,5 %), Chiroqchi (5,4 %), Nishon (5,1 %), Kitob (4,7 %), G'uzor (4,1 %), Muborak (3,7 %), Shahrabsabz shahri (3,7 %), Shahrabsabz (2,8 %), Ko'kdala (2,1 %) va Dehqonobod (1,4 %) tumanlari hissalariga tegishli.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

24



O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)



25



2023- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan 33 ta oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Ko'kdala (21,2 %), Qarshi (18,2 %), Qarshi shahri (9,1 %), Shahrisabz (9,1 %), Nishon (9,1 %), Shahrisabz shahri (6,1 %), Koson (6,1 %), G'uzor (6,1 %), Kasbi (3,0 %), Muborak (3,0 %), Kitob (3,0 %), Qamashi (3,0 %), Dehqonobod (3,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi va Chiroqchi, Mirishkor, Yakkabog' tumanlarida yangidan oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2023- yilning yanvar oyida, birlikda)



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagisi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 221-17-93**